

*Nikoh tomon  
bitz qadam*

## **Hurmatli birodarlarim!**

Psixolog emasman-u, ammo bo'ydoq yigitlar bo'lajak umr yo'ldoshni qanday topish borasida tez-tez savol berishadi. Shu sababli qisqa va soda ravishda ushbu kichik qo'llanmani yozishga ahd qildim. Umid qilamanki, o'zingizga kerakli ma'lumotlarni olasiz va bu sizga hayotingizda albatta asqotadi.

\*\*\*

**Bo'ydoqlik** fasli ham nihoyasiga yetib qoldi, ammo negadir kelinlikka nomzodlar sizga ma'qul kelmayabdi. Sizni tushunaman, ko'ngil tortmaydigan inson bilan bir umr yashash - **mahbusdek** hayot kechirish degani.

Shar'iy uchrashuvga bir necha marta chiqdingiz, ammo bironta nomzod sizga ma'qul bo'lmayabdi. Balkim, gap boshqa yoqdadir?!

Hayotiy tajribamdan kelib chiqqan holda sizga ayrim tavsiyalarni beraman. Buning uchun qandaydir psixologik kitoblarni mutolaa qilish yoki uylangan insondan "**aql so'rash**" shart emas. Shunchaki "**samoanaliz**" qilamiz. Hayotga noodatiy yondashamiz.

\*\*\*

1. "**Qizga yoqishim kerak**" degan tushunchani hayolingizdan chiqaring! Siz emas, u sizda ijobiy taassurot qoldirishi kerak. Chunki oilada yagona **dominant** – bu siz! Agar qiz sizga yoqsa birgina uchrashuv kifoya qiladi. Agar unga yoqishim kerak degan

hayol bilan borsangiz, uchrashuv yakunida u indamay ketaveradi. Siz esa elchilar orqali yana uchrashuvga chiqish niyatini bildirasiz. Bu degani, siz qizning ko'z oldida o'z mavqeingizdan tushdingiz.

2. Qizning uchrashuvga kelar vaqtiga diqqat qiling. Agar 10-15 daqiqa kech qolsa **hayodan**. Agar soatlab kech qolsa, demak yo uni **majburlab chiqarishgan**, yoki u vaqtini to'g'ri taqsimlay olmaydigan **befarq** inson. Vaqtini to'g'ri taqsimlamagan inson namozga ham befarq bo'ladi. Unday xotinda xayr-baraka yo'q!

3. Qiz kelayabdi. Unga bir bora razm soling. Sizda soniya vaqtingiz bor. O'sha soniyada siz qizni hijobga bo'lgan munosabatini aniqlashingiz kerak.

Agar hijobni **qoidasi** bilan o'ragan bo'lsa, demak Islomga nisbatan muhabbatli.

Agar yorqin ro'mol, shaklini ko'rsatuvchi libos yoki shimda kelsa, bilingki, bu qiz "**yevrohijob**"li qiz. Sizga bunday qizni tavsiya qilmayman.

\*\*\*

Unga hadeb **tikilavermang**, uni juda noqulay ahvolga solasiz.

\*\*\*

4. Qiz o'tirgan joyida qo'lidagi sumkasini ushlab olgan bo'lsa, demak u ketishga taraddud ko'rmoqda. Demak, suhbatda xatolikka yo'l qo'ygansiz.

5. Bir narsani inobatga oling. Qiz sizdan oldin ham nomzodlar bilan ko'rishgan, balkim sizdan keyin ham ko'rishar. Unda yangicha taassurot qoldiring. Suhbat davomida u sizni analiz qilishiga yo'l qoy'mang, sizga berar savollariga u kutmagan javobni bering. Chunki u deyarli yigitlar psixologiyasi bilan tanish. Hamma yigitlar bir xil gapirishiga umuman **shubha qilmaydi**. Aslida ham shunday. Bu haqida keying badda batafsil tanishib olasiz!
6. Gapirishga jur'atingiz yetmasa, bo'lmag'ur-bekorchi savollarni bermang. Masalan:

“**Qayerda o'qiysiz?**” – sizga uni qayerda o'qishini nima ahamiyati bor? U javob ham berdi deylik, nimadir o'zgaradimi? Keyin suhbatni ulash uchun nima deysiz? “O'sha o'quv dargohidagi Teshaboyni taniysizmi? Meni sinfdoshim bo'lgan” demaysizku?!

“**Qaysi rang yoqadi?**” – bu haqiqiy mag'lubiyat! Buning ham nima ahamiyati bor?

“**Qanday kitoblarni yaxshi ko'rasiz?**” – asosan bunday savolni biroz lanj yigitlar beradi.

Bilib oling, qizlar asosan siyratga oid kitobni yoqtirishadi. Ularga hayotlari davomida namuna bo'ladigan qahramonlar haqidagi kitoblarni mutolaa qilishadi. Bundan xabardor har bir yozuvchi o'zining asarida muayyan bir insonni bosh qahramon sifatida yoritib, barcha voqeelikni unga bog'lashga urinadi. Bu sizdan boshqa barchaga ma'lum holat xolos.

“**Yigitlar bilan gaplashganmisiz?**” – aslida bunday jirkanch savol nomahramlar bilan gaplashishni yoqtiradiganlardan chiqadi. Ushbu savolni berishingiz bilanoq bilinggki, qizda sizga nisbatan **shubha**

uyg'ondi.

\*\*\*

“**Namoz o'qiysizmi?**” – bir tomondan ushbu savol muhimdek tuyuladi. Ammo ushbu savoldan tiyilganingiz ma'qul. Chunki qiz har qanday javobdan **hijolat** bo'ladi: “Ha, o'qiyman” desa, **riyo** aralashib qolishidan, “Yo'q, niyatim bor” desa, sizni oldingizda. Aslo qizni noqulay vaziyatga solib qo'ymang.

“**Hijobni qachondan o'ragansiz?**” – bu savol ham noo'rin deb o'ylayman. Sizga nomahram bo'lgan qizning kiyinish tarzi borasida savol bermaganingiz ma'qul. Qiz sizni **mijg'ov** deb o'ylaydi. Agar shu savolni bersangiz, rostdan ham mijg'ovsiz!

\*\*\*

“**To'ydan keyin ishlash niyatingiz bormi yoki uyda o'tirasizmi?**” – bu sizni oilada yakdil qarorga kela olmasligingizni anglatadi. Haqiqiy rijol “**To'ydan keyin uyda o'tirib, solih farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanasiz!**” deydi. Ahamiyat bering, siz savol bermayabsiz, siz unga oilada kim dominantligini **ma'lum qilayabsiz**.

Aslida ham qizlarga qarori qat'iy, uzoqni ko'ra biladigan abjir yigitlar yoqadi.

Agar yuqoridagi savolni bersangiz, boshingizga chiqib olishi uchun narvonni o'rnatdingiz degani.

“**Taom pishirishni bilasizmi?**” – FAIL!!!

Axir qaysi bo'yi yetgan qiz taomni pishirishni bilmaydi?

“**Qaysi faslni yoqtirasiz?**” – hozir bahor. U qishni yaxshi ko'raman

desa qor yog'dira olasizmi? Yo'q? Unday bo'lsa bu savoldan tiyiling.

Bunga o'xshash noo'rin savollarni ro'yxati cheksiz.

Unda qanday savollarni berish kerak?

Siz shunday savol beringgki, uning javobidan diniy hamda dunyoqarashlarini qanchalik kengligini bilib oling.

\*\*\*

**“Qanday rukndagi musiqalarni yoqtirasiz?”**

Agar siz undan musiqa eshitasizmi deya so'rasangiz, u darrov sinayotganingizni anglaydi.

Aslida qiz bolaga sinov tariqasida savol bersangiz u darrov fahmlaydi. Ammo buni sezmaganday javob beradi. Chunki sizning ayyorligingizdan nechog'lik ilm sohibi ekanligingizni bilib oladi. Ayol zoti yoqimli aldanishni sevadi. Uning javobi sizni qoniqtirsa suhbatni davom ettiring.

\*\*\*

**“Oilada ayolning eri oldidagi vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?”** – aslida ushbu savolingiz kelajakda qanday xotin bo'lishing borasida menga hozir ahd ber degani bo'ladi. To'ydan so'ng siz bilan qaysidir masalada tortishmoqchi bo'lsa, uchrashuvdagi gaplarini eslab, o'zini biroz tiyadi. Yoki o'zingiz yumshoq hazil tarzda, yuziga solmay eslatib qo'yasiz.

**“Islom qaynona-qaynotaga xizmat qilish borasida nima deydi?”** – aslida ushbu savol deyarli berilmaydi, ammo sizga nisbatan

muhim bo'lish ehtimoli katta.

\*\*\*

“**Qur’ondan nechi pora bilasiz?**” – ushbu savolni atayin berilmasligi tavsiya qilingan ruknda keltirmadim. Deyarli hamma shu savolni beradi. Ammo bilib qo’ying, ilmi boru, amali yo’q insonlar talaygina. Shuning uchun yuqoridagi savolni “**Bilgan oyatlaringizni birginasiga amal qilasizmi?**” mazmunidagi savolga almashtiring. Uning javobi ko’p narsani oydinlashtiradi. Agar sukut saqlab, o’ylanib qolsa, demak o’z amallaridan hijolat bo’layabdi. O’z amallaridan g’ururlanmaydigan qizdan **yaxshi jufti halol** chiqadi.

\*\*\*

Suhbat davomida hazil ham qilib turing. Aks holda o’zingizga chetdan qarasangiz, siz prokuror, u esa gumon qilinuvchidek ko’rinadi. Hazil qilganda ham aqlingizni ishlating. Qizni kuldiraman deb bachkanalashib ketmang. O’zingiz hazil qilib, o’zingiz kulmang. Agar qiz jilmaysa, siz ham muloyim tabassum qiling.

\*\*\*

Agar sizning ayrim gaplaringizga ensa qotirib qo’ysa yoki miyig’ida jilmaysa – demak unda yaxshi taassurot qoldira olmadingiz. Uni vaqtini behuda olayabsiz. Xullas, **mag’lubsiz!**

\*\*\*

Suhbat davomida Saodat asriga oid voqeeliklarni yodga oling. Mashhur hadislarda keltirilgan iboralarni qo’llab gapiring. Agar qiz

ham ushbu hadislardan xabardor bo'lsa, biroz sergak tortadi. Bahonada siz uning qanday kitoblarni o'qiganini tahmin qilasiz. Qiz ham oldidagi yigit ancha-muncha ilmnok yigit ekaniga iqrar bo'ladi.

Shuni ham alohida inobatga oling, qiz bolalar hozirjavob va shiddatli yigitlarni yoqtiradilar. Ammo o'zingizni shunday tutishga urinsangiz yo qiz sezib qoladi, yo o'zingiz qovun tushirasiz. Ikkala holatda ham **mag'lubsiz!**

\*\*\*\*

Agar qiz bilan iliq kontakt o'rnatish olsangiz, demak qiz sizni to'liq o'rgana olmadi. U ikkilanayabdi. Aytaylik, sizga qiz yoqdi, ammo siz unga yoqdingizmi yo'qmi bilmoqchisiz? Tabiiyki, to'g'ridan-to'g'ri so'rashning iloji yo'q. Ho'sh, unday bo'lsa, buni qanday aniqlaymiz?

Har qanday jiddiy va kamgap qizning ichida juda sho'x va mahmadona qizaloq yashaydi. Agar qiz suhbatda o'zini erkin tutib, samimiy gapirayotgan bo'lsa, demak qiz asl o'zini sizga namoyon qilmoqda. Do'ppini osmonga otin! Qizlar hammaga ham ochilavermaydilar!

U bilan biroz sayr qilish taklifini bering. Balkim qiz uni yaqinlari kuzatayotganini bilgani uchun ham o'zini hijolat sezayotgan bo'lishi mumkun.

\*\*\*

Imkon qadar qizni ko'proq piyoda olib yuring. Oyoqlarini charchating. Bu juda muhim sinov. Agar qiz charchaganini ma'lum qilsa, (biroz o'tiraylik, mashrutka yoki mashinada boraqolaylik)



demak uyiga qochishni ko'z ladi. Agar charchog'ini sezdirmay sukut bilan yurishni davom etsa, o'zingizga kerakli xulosani chiqarib olasiz. Agar siz uni sabrli ekaniga ishonch hosil qilsangiz, biroz o'tirishni ayting va nima uchun bunday olis yo'lni bosib o'tkaningizni, uni sinaganingizni ma'lum qiling. Shunda u "**Demak uchrashuvning ilk onidayoq meni sinayotgan ekanda**" deb o'ylaydi. Ko'z oldida savlatingiz yuksaladi. Agar sukut saqlasa demak qiz dominantlikni sizga topshirdi.

\*\*\*

Sayr davomida u asosan nimalarga ahamiyat berayotganiga diqqat qiling. Ayrim qizla sayr davomida ko'chada ketayotgan yigitlarga ham sezdirmay razm solidi. Agar ko'zlari "**o'ynoqi**" qiz bo'lsa, shu yerni o'zida nimanidir bahona qilib ketkaningiz ma'qul.

\*\*\*

Ho'sh, **sayr-sinovi operatsiyasi** ijobiy natija berdi. Qizdan rozilik olishni yana qanday usullari bor ekan-a?

Undan soddaroq tarzda mahrga nima so'rashini bilib oling. Qiz biroz taajjublanishi tabiiy. Siz beparvo ohangda "**Hech o'ylab ko'rganmisiz? Mahrga nima so'rgan bo'lardingiz?**" deb, yoki shunga o'xshash mazmunda savol bering. Uning javobi sizga rozilik bergani alomati. Ammo biroz ogoh bo'ling, qovun tushirmang.

Odatda qizni mahr so'rashiga qarab uni qanday tarbiya olganini bilib olsa bo'ladi. Masalan, kitob yoki ilm olishga dalolat qiluvchi narsalar bo'lsa – nur ustiga a'lo nur. Agar uzuk, tilla-taqinchoq so'rasa – biron nima deya olmayman, har holda mahr uning haqqi, istaganini so'raydi. Lekin soliha qiz oxirati uchun foydali buyum

so'rashi aniq.

\*\*\*

Qiz har tomonlama sizga ma'qul bo'ldi. Siz ham unga ma'qul bo'ldingiz, buni uning hatti-harakatlaridan sezdingiz. Balkim o'rtangizda muhabbat ham uyg'ongandir. Ushbu muhabbatga shiddat berish uchun ajoyib bir usulni o'rgataman. Ammo qachon, qanday ishlatishni bilishingiz zarur.

Xayrlashar chog'ingiz unga **Qur'oni Karim hadya qiling** (Uchrashuvga kelishdan oldin olsangiz bo'ladi. Yodingizdan ko'tarilgan bo'lsa sayr davomida do'konlardan oling. Umuman olganda bu majburiy ham emas).

**“Men hayotimni Islom ahkomlariga ko'ra qurmoqchiman. Mening oilamda er yoki xotin emas, Qur'on hamda Sunnat hukum chiqarishi tarafdoriman. Har bir ishda Alloh va Uning Rosuli (ﷺ) ko'rsatmalariga amal qilgan holda hayot kechirishni istayman.**

**Farzandlarimni yoshligidan ilimli va taqvoli, o'qiganiga amal qiladigan bo'lib ulg'ayishini istayman.**

**Ertaga Haq Kunda ayolim uchun javobgar holimda yuzim qizarishini istamayman. Yoki birimiz Jannatda, birimiz Jahannamda qolib – og'ir ayriliqqa guvoh bo'lishni istamayman...**

**Bu Musxaf mendan sizga hadya. Bu mening niyatim naqadar jiddiy va hech qanday yolg'on-yashiqsiz ekanligini isbotlaydi. Rozilik berish-bermaslik albatta sizning haqqingiz. Men hech**

**qanday e'tirozim bildirmayman. Agar rozi bo'lmagan taqdiringizda ham ushbu Musxaf chang bosmasin. Sizga yaxshilikka xizmat qilishiga chin yurakda ishonaman...**" mazmunida iliq gapirib subatni yakunlang.

Bu **"Uyingizdagilar orqali javobingizni aytarsiz"** degan jumladan million marotaba afzaldir.

\*\*\*

Siz ham uyingizga kelib, oila a'zolaringizga **"Qiz nima dedi?"** ohangida boqmaysiz. O'z yumushingiz bilan band bo'lavering. Rozi bo'lsa – baxtli bo'ling, rozi bo'lmasa – qizlar kam emas. Qazoi qadaringizda yozilgani bilan turmush qurasiz.

\*\*\*

Hurmatli birodarlarim! Ushbu tavsiyalar sizga qanchalik naf keltiradi, Alloh bilguvchiroq!

Kitobchada xato-kamchiliklar bo'lishi ehtimoli yuqori. Bularni bir kunda, qisqa soatlar ichida, yodimga tushganini yozib, sizga havola qilayabman.

Manfaatli bo'lsa - Allohdan, kamchiliklari bo'lsa – menday ilmi va amali noqis birodaringizdan deb biling.

Sizdek solihlarning duolariga muhtoj bir gunohkor banda  
[#Shaydoi\\_Jannat](#) (Jahongir Ibrohimov)

**[instagram.com/ahli\\_muslimin](https://www.instagram.com/ahli_muslimin)**

**[telegram.me/imonsadosi](https://t.me/imonsadosi)**